

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025- yilning yanvar-mart oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 9 798,8 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2024- yilning yanvar-mart oylari bilan taqqoslaganda 4,3 % ga o'sdi.


YAHM deflyator indeksi 2024- yilning yanvar-mart oylari narxlariga nisbatan 107,2 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Qoraqalpog'iston Respublikasining qo'shgan hissasi 2,9 % ga yetdi.

2025- yilning yanvar-mart oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi




2025- yilning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2024- yil	2025- yil	
I. YAHM, jami	8 758,8	9 798,8	104,3
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	8 455,2	9 533,8	104,3
mahsulotlarga sof soliqlar	303,6	265,0	104,8
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	8 455,2	9 533,8	104,3
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	890,4	1 026,1	103,9
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	2 854,4	3 056,1	103,8
sanoat	2 188,4	2 317,2	103,1
qurilish	666,0	738,9	105,8
xizmatlar	4 710,4	5 451,6	104,7
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 478,0	1 742,5	108,9
tashish va saqlash, axborot va aloqa	687,0	769,1	104,0
boshqa xizmat tarmoqlari	2 545,4	2 940,0	102,5

Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 4 821,2 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 3,0 % ga yuqoridir.

2025- yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi
(ming so'mda)



2025- yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)



Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2024- yil	2025- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	96,5	97,3
mahsulotlarga sof soliqlar	3,5	2,7
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	10,5	10,8
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	33,8	32,0
sanoat	25,9	24,3
qurilish	7,9	7,7
xizmatlar	55,7	57,2
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	17,5	18,3
tashish va saqlash, axborot va aloqa	8,1	8,1
boshqa xizmat tarmoqlari	30,1	30,8




2025- yilning yanvar-mart oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 97,3 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,7 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 10,8 % ni, sanoat tarmog'i 24,3 % ni, qurilish 7,7 % ni va xizmatlar sohasi 57,2 % ni tashkil qildi.

Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2024- yil



2025- yil




● Yalpi qo'shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 0,4 f.p. (2024- yilning yanvar-martida – 0,3 f.p.), sanoat tarmog'i – 0,8 f.p. (2024- yilning yanvar-martida – 1,4 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,4 f.p. (2024- yilning yanvar-martida – 0,8 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 2,5 f.p. (2024- yilda – 3,1 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,2 f.p. (2024- yilning yanvar-martida – 0,7 f.p.)ga kamaydi.

2025- yilning yanvar-mart oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2025- yilning yanvar-mart oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 103,9 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 10,8 %), sanoatda – 103,1 % (ulushi 24,3 %), qurilishda – 105,8 % (ulushi 7,7 %), xizmatlar sohasida – 104,7 % ni (ulushi 57,2 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 108,9 % (ulushi 18,3 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 104,0 % (ulushi 8,1 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 102,5 % dan (ulushi 30,8 %) iborat bo'ldi.

Yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)

2024- y.

2025- y.



6,3 %

YAHM

4,3 %



3,5 %

Qishloq, o'rmon
va baliqchilik xo'jaligi

3,9 %



6,5 %

Sanoat

3,1 %



10,4 %

Qurilish

5,8 %




5,9 %

Xizmatlar

4,7 %

2025- yilning yanvar-mart oylarida YAHM deflyatori indeksi 2024- yilning yanvar-mart oylaridagi narxlarga nisbatan 107,2 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi da – 110,9 % va Xizmatlar da – 110,5 % qayd etildi.

**Yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat
turlari bo'yicha deflyator indeksi**
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2025-yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik hajmi 5 671,3 mlrd. so'mni tashkil etdi (2024- yilning yanvar-mart oylarida – 4 799,2 mlrd. so'm). YAHMdagi ulushi 59,5 % ni (2024- yilning yanvar-mart oylarida – 56,8 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan bog'liq.

Yanvar-mart oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

Hajmi, mlrd.so'm

Ulushi, % da

2024- yil

4 799,2

56,8 %

2025- yil

5 671,3

59,5 %

